



GLOBAL AXBOROT MAKONIDA KIBERXAVFSIZLIK TAHDIDLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.

Abdumannov Javohir Shuxrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kiberxavfsizlik tushunchasi, ahamiyati va mazmun mohiyati, qanday qilmishlar kiberjinoyat deb atalishi, kibertahdid nima ekanligi va ularning mazmun mohiyati batafsil yoritilgan. Shu jumladan ushbu mavzu borasida milliy qonunchilik normalariga murojaat etilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *kiberxavfsizlik, ma'lumotlar ba'zalari, ma'lumot o'g'irlash, kiberhujum, axborot.*

CYBERSECURITY THREATS AND THEIR PREVENTION IN THE GLOBAL INFORMATION SPACE.

Abstract: *This article discusses in detail the concept, importance and essence of cybersecurity, what acts are called cybercrimes, what cyberthreats are and their essence. In addition, national legislative norms on this topic are referred to and analyzed.*

Keywords: *cybersecurity, databases, data theft, cyberattack, information.*

УГРОЗЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ И ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ В ГЛОБАЛЬНОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ.

Аннотация: *В данной статье подробно рассматриваются понятие, значение и сущность кибербезопасности, какие деяния называются киберпреступлениями, что такое киберугрозы и их сущность. Кроме того, приводятся и анализируются национальные законодательные нормы по данной теме.*

Ключевые слова: *кибербезопасность, базы данных, кража данных, кибератака, информация.*

Zamonaviy dunyoda kiber tahdidlar soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Jahon ommaviy axborot vositalari har kuni yangi voqealar haqida xabar berib kelmoqda. Bularga misol tariqasida, virusli dasturlarni tarqatish, parollarni buzib kirish, kredit karta va boshqa bank rekvizitlaridagi mablag'larni o'zlashtirish talon-toroj qilish, shuningdek, internet orqali qonunga zid axborotlar, xususan, bo'hton, ma'naviy buzuq ma'lumotlarni tarqatish kabilarni keltirish mumkin. Yirik xalqaro kompaniyalar va davlat idoralari kiber hujumlar to'lqiniga duchor bo'layotgani hamda xakerlar oddiy fuqarolarning bank hisoblariga hujum qilayotgani raqamli dunyoda tahdidlardan ishonchli himoya qilish tizimini yaratish lozim

ekanligini anglatadi. Keling, kiberxavfsizlik nima ekanligini va nima uchun u har birimiz uchun juda muhimligini aniqlaylik.

Kiberxavfsizlik – bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar, dasturlar va ma'lumotlarni ruxsatsiz kirish, hujum, o'g'irlash yoki zarar yetkazishdan himoya qilish sohasidir. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga ko'ra "Kiberxavfsizlik" – kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati hisoblanadi. Shu o'rinda «Kiberjinoyatchilik» tushunchasiga kelsak, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda, virtual tarmoqda dahshat solish, virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish (spam), xakerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, ma'lumotlar butunligi va mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami hamda bank rekvizitlarini o'g'irlash (fishing va farming) va boshqa turli huquqbuzarliklar bilan izohlanadi. Ushbu tushuncha O'zbekiston Respublikasi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida ya'ni "Kiberjinoyatchilik" – axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi deya ta'riflangan.

Shu o'rinda kiberterrorizm va uning jamiyat hayotiga solayotgan xavfining ko'lami ham oshib borayotganini ta'kidlash joiz. Kiberterroristik harakat (kiberhujum) - kompyuterlar va axborot kommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshirilgan, odamlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'diradigan yoki potentsial xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan, moddiy obyektlarga katta zarar yetkazishi yoki shunga olib kelishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy xavfli oqibatlarining boshlanishi yoki maqsadi bo'lgan siyosiy sababdir. So'nggi yillarda kiberhujumlarning ko'lami va chidamliligi tez sur'atlar bilan oshib kelmoqda. Jahon Iqtisodiy Forumi 2018-yilgi hisobotida ta'kidlanganidek: "Kiberhujumlar soni biz ularga qarshi kurashish qobiliyatimizga qaraganda tezroq rivojlanmoqda".

Avvalo kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun aholini huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, sababi huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lmagan kishi nafaqat o'zining shaxsiy ma'lumotlarini, balki butun bir oilasining ma'lumotlarini ham xavfsiz saqlay olmaydi. Bu esa kiberjinoyatchilarga judayam qo'l keladi va ular ortiqcha qiyinchiliklarsiz insonlarning ma'lumotlarini noqonuniy tarzda egallab, har qanday yo'lida, asosan moddiy manfaat orttirish yo'lida foydalanishadi. Natijada, hududdagi kiberjinoyatlar sonining darajasi yuqorilab ketadi va bu nafaqat mamlakatning ichki hududidagi mavqeyiga balki xalqaro maydondagi nufuziga salbiy ta'sir o'tkazmay qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 155-moddasiga binoan "Axborot tizimidan foydalanish maqsadida unga ruxsatsiz kirib

olishda ifodalangan axborot va axborot tizimlaridan foydalanish qoidalarini buzish — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Kiberxavfsizlikning qonun doirasida himoya qilinishi uning jamiyat miqyosida muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga binoan har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinish huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi tog'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Bu qoidaning "Bosh Qomus"imizda berilishi Respublikamizning hududimizdagi fuqarolarning axborotlari xavfsizligi borasidagi g'amxo'rlikini, u buzilganda davlatning majburlov kuchi harakatga kelishini yaqqol isboti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonuniga binoan, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi sanaladi. Ushbu organning vakolat doirasiga kiberxavfsizlik sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va davlat dasturlarini ishlab chiqish, kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, kiberxavfsizlik hodisalari yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirlarini, tergovga qadar tekshiruvlarni hamda tergov harakatlarini amalga oshirish va boshqa shu kabi vazifalar kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kiberxavfsizlik butun dunyoda global muammoga aylanib ulgurgan. Bu ko'plab davlatlarga kiberjinoyatlarga qarshi samaraliroq kurashish va kerak bo'lsa bu illatni tag-tomiri bilan yo'q qilib tashlash mas'uliyatini yuklaydi. Bundan tashqari fuqarolar ham har bir internet orqali qilayotgan ishlariga e'tiborli bo'lishi kerak va bu albatta kiberxavfsizlikning ijobiy tomonga siljishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy ba'zasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi, 01.04.1995 y..
3. O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun ,764-son 15.04.2022 y.